

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

NURBOYEV JALOLIDDIN MAMADIYEVICH

**TO‘QIMACHILIK SANOATIDA JAHON SAVDO TASHKILOTI
STRATEGIYASIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**IQTISODIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора экономических
наук (DSc)**

Contents of the dissertation abstract of the Doctor of economic sciences (DSc)

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich

To‘qimachilik sanoatida jahon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish..... 3

Нурбоев Жалолиддин Мамадиевич

Улучшение применения стратегии Всемирной торговой организации в текстильной промышленности. 35

Nurboev Jaloliddin Mamadievich

Improving the use of the World Trade Organization strategy in the textile industry..... 48

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 64

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

NURBOYEV JALOLIDDIN MAMADIYEVICH

**TO‘QIMACHILIK SANOATIDA JAHON SAVDO TASHKILOTI
STRATEGIYASIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**IQTISODIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/Iqt786 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «__» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «__» _____dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi)

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d, professor

U.V. G'afurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai nazardan mamlakat uchun muhimligiga qaramasdan, to‘qimachilik sanoatida Jahon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish muammosi yetarlicha o‘rganilmagan. Hozirgi kunda jahon bozorida to‘qimachilik mahsulotlarining savdo ulushi 4,7 foizni tashkil etsa, JSTga a‘zo davlatlarning ushbu tovarlarning jahon savdosidagi ulushi qariyb 99 foizni tashkil etadi. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoat qisqa muddatda ish o‘rinlari va aholining, ayniqsa xotin-qizlarning daromadini, xorijdan valyuta tushimi hajmini oshirishga xizmat qilsa, uzoq muddatli istiqbolda to‘qimachilik sanoatini dinamik rivojlantirishga qaratilgan tegishli siyosat va institutlarga ega mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan yurtimizning asosiy savdo sheriklari, O‘zbekistonni jahon savdosiga yanada ochiqroq qo‘shilish istagida qo‘llab-quvvatlaydi va O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish jarayoniga har tomonlama yordam beradi. JSTning roli, JST a‘zolariga beriladigan imtiyozlar, savdo va boj ta‘riflari, tizimli transformatsiya, savdoga oid intellektual mulk huquqi (TRIPS), jus cogens tamoyili, milliy rejim va eng maqbul mamlakat prinsiplari, GATT, GATS, antidemping qoidalari, JST doirasida nizolarni hal etishga oid huquqiy munosabatlar Xususan, Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lish jarayonini moliyalashtirish uchun 5 million yevro miqdorida grant ajratdi. Tomonlar o‘rtasidagi bitim 2019-yil 11-noyabrda Bryusselda imzolangan va Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonida, shu jumladan, zarur hujjatlarni tayyorlashda, o‘zbekistonlik mutaxassislarining JST shartnomalari bo‘yicha bilimlarini oshirishda O‘zbekistonga yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Milliy iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida to‘qimachilikni sifat jihatidan jadal rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli va maqsadli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni 25-maqsadida: “Raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish” shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash yo‘nalishidagi 55 maqsadi milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini mustahkamlash va uning tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini keskin oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, eksport hajmini 2 barobarga oshirish va uni 45 mlrd. AQSh dollariga yetkazish, eksport qiluvchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravarga oshirish strategiyada belgilangan asosiy vazifalardandir.¹

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-dekabrda “Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha Idoralararo

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. Elektron resurs: <https://lex.uz/ru/docs/6600404>.

komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1040-son qarori² shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-maydagi 339-son qarori bilan “Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha Idoralararo komissiya to‘g‘risida”gi mazkur nizomning 6-bandiga ko‘ra, JST bilan ishlash bo‘yicha muzokaralar guruhi bilan birgalikda strategik masalalar bo‘yicha, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-71-sonli farmonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida islohotlarni jadallashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-290-sonli qarori, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-sonli farmoni mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. To‘qimachilik sanoatida Jahon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha qator tadqiqotlarda e’tibor qaratilgan. Jumladan to‘qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy nazariyalari va uni boshqarishning o‘ziga xos jihatlariga xorijiy olimlar V.A. Belov, P.Lamy, L.D’amore, Ch.Goyeldner, J.R Brent., I.Ansoff., G.Mintzberg, M.Porter., A.Chandler., L.I. Abalkin., O.S. Vikhansky., A.P.Gradov, V.M.Polterovich., B.T.Zhumagulov., O.S.Sabden, Y.A Aubakirov., A.K.Koshanov., A.G.Aghanbegyan., T.A.Akimova., O.S.Pchelintsev, A.G.Granberg., R.S.Greenberg., A.G.Gryaznova., V.I.Danilov-Danilyan, B.K.Zlobin., N.N.Lukyankov, I.N.Omelchenko, V.F.Parfenov., T.V.Begun., A.I.Tatarkin., Davlatov K.S.,Disembaev R.N.,Akturayeva, Z.K.,Tlesova E.B.,Zhanbaev R.A.,Maximov D.G.,Erkin A.E.,Temirbaeva G.R.,Tagarov B.Zh.Craig Van Grassteklar³ tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

² Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-dekabrda 1040-son qarori bilan tasdiqlangan Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha Idoralararo komissiya tarkibi. <https://lex.uz/docs/-4124260>

³ Ansoff I. Strategic Management. Classic Edition. – Moscow: Piter, 2010. – 340 pages.Mintzberg G. Management: Nature and Structure of Organizations. – Moscow: AlpinaPRO, 2021. – 720 pages.Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – Moscow: Alpina Publisher, 2016. – 454 pages.Chandler A. Strategy and Structure. – Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1988. – 500 pages.Abalkin L.I. Property, Economic Mechanism, and Productive Forces // Economic Science of Modern Russia. – 2000. – No. 1(5). – pp. 52-53.Vikhansky O.S., Naumov A.I. Management: Textbook. – Moscow: Gardariki, 2002. – 574 pages.Gradov A.P. National Economy. – St. Petersburg: Piter, 2005. – 164 pages.Polterovich V.M. Theory of Economic Reforms // Economics and Mathematical Methods. – 2003. – Vol. 35. – No. 2. – pp. 3-19.Zhumagulov B.T. The New Kazakhstan Will Be Built According to World Quality Standards // Industrial and Civil Construction. – 2013. – No. 7. – pp. 96-98.Sabden O.S. Modernization of Public Development and the New Paradigm of State Management // The Age of Globalization. – 2021. – No. 2. – pp. 43-56.Aubakirov Y.A. National Economy: Theoretical, Methodological, and Practical Problems of Development. – Almaty: Triumph, 2009. – 408 pages.Koshanov A.K. Globalization and the System of Regional Economic Interests // Reforma. – 2011. – Vol. 1. – No. 17. – pp. 4-9.Aghanbegyan A.G. Human Capital and Its Main Component - the "Knowledge Economy" as the Main Source of Socio-Economic Growth // Economic Strategies. – 2017. – Vol. 19. – No. 3. – pp. 66-79.Akimova T.A. Economics of Sustainable Development. – Moscow: ZAO “Publishing House ‘Economics’”, 2009. – 430 pages.Pchelintsev O.S. Problems of Forming the Economic System of Sustainable Development // Journal of Economic Science of Modern Russia. – 2001. – No. 4. – pp. 5-22.Granberg A.G. Modeling Spatial Development of National and Global Economies: Evolution of Approaches // Region: Economics and Sociology. – 2007. – No. 1. – pp. 87-107.Greenberg P.C. On the Problems of Russia’s

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida to'qimachilik sanoatida Jahon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanish bo'yicha, ularni baholash, strategiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirishga oid E.V.Yevtushenko, Z.M.Isakova, L.Kalacheva, I.Lapina, S.F.Sayfulina, L.A.Klimova, S.A.Knyazev, V.A.Pazderina, K.A.Sannikova, L.I.Shamgulova, YE.S.Belyayeva, G.B.Gorbunova, S.Yeremeyeva, G.I.Jits, D.Kokurin, T.Kolosova, S.V.Kochetkov, A.Lyaskovskaya, L.A.Pancheva, V.N.Suyazov kabi olimlar izlanishlarida aksini topgan.

O'zbekistonda N.M.Maxmudov, M.R.Boltaboyev, SH.N.Zaynutdinov, M.A.Maxkamova, SH.I.Otajonov, N.M.Rasulov, B.A.Abdullayev, G.D.Xasanova, T.Toshpulatov, I.I.Soliyev, G.B.Shanazarova, O.E.Ernazarov, G.SH. Xankeldiyeva, M.Sharifxo'jaev, A.Sh. Bekmurotov, N.To'xlijev, A.Rasulov, A.O'Imasov, A.Razzoqov, R.Alimov, B.Mahmudov, D.S.Nasirxadjayeva, G.Nazarova, N.Sirojiddinovlar⁴ kabi olimlar izlanishlarida to'qimachilik sanoatida Jahon savdo tashkiloti startegiyasidan foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

Mazkur tadqiqotlarda to'qimachilik sanoatida korxonalarining qiymat zanjirini yaratishda resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlaridagi yo'qotishlarni kamaytirish, resurs xavfsizligini ta'minlash, sanoat korxonalari faoliyatida mahalliy resurslardan foydalanish asosida eksport

Integration into the Global Economy and Its Natural and Intellectual Potential // Banking Services. – 2007. – No. 2. – pp. 6-6. Gryaznova A.G., Antonuk V.S., Korniyenko E.L. Regional Problems of Infrastructure Management in the Digital Economy // Manager. – 2019. – Vol. 10. – No. 4. – pp. 38-50. Danilov-Danilyan V.I., Losev K.S. Environmental Challenge and Sustainable Development. – Moscow: Progress-Tradition, 2000. – 169 pages. Zlobin B.K. Efficiency of Social Management // Sociology of Power. – 2007. – No. 5. – pp. 5-13. Lukyankichkov N.N. Economics and Organization of Natural Resource Use: Textbook / N.N. Lukyankichkov, I.M. Potravny. — 4th ed., revised and updated. — Moscow: Unity, 2011. — 688 pages. Omelchenko I.N. Strategic Management of Organizational and Economic Stability of Firms: Logistics-Oriented Business Design. – Moscow: Publishing House of MGTU named after N.E. Bauman, 2001. – 599 pages. Parfenov V.F. Formation of State Strategy for Sustainable Development of Russia. – Moscow: Logos, 1999. – 414 pages. Begun T.V. Sustainable Development: Definition, Concept, and Factors in the Context of Monocities // Economics, Management, Finance: Proceedings of the II International Scientific Conference (Perm, December 2012). – Perm: Mercuriy, 2012. – pp. 158-163. Tatarkin A.I., Romanova O.A. Industrial Policy: Genesis, Regional Features, and Legislative Support // Economy of the Region. – 2014. – No. 2. – pp. 9-21. Davlatov K.S. Sustainable Development: Views and Approaches // Young Scientist. – 2021. – No. 27(369). – pp. 113-116. Maximov D.G., Erkin A.E., Goals of Implementing the Concept of Sustainable Development at Different Levels of the Economic System // Creative Economy. – 2021. – Vol. 15. – No. 3. – pp. 821-836. Орешин В.П. “Региональная экономика и управление”. Учебник. -М.: ИНФРА-М, 2006, 24 б. Мальцев. А А Государственное регулирование внешнеэкономической деятельности в РФ 1994-1995 гг. Учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во ЕАИУПб 2004. Савицкая Г.В. “Анализ хозяйственной деятельности предприятий” –М.: ИНФРА-М, 2001. Юсупов С.Ш. Роль маркетинга в повышении конкурентоспособности продукции текстильной и легкой промышленности Узбекистана. // Материалы международной научно-практической конференции. - Москва, ГОУ ВПО “РЭА им. Г.В.Плеханова”, 2009. -С. 235, 236. Юсупов С.Ш., Юлдашев Н.К. Формирование ценовой конкурентоспособности продукции легкой промышленности в стратегии маркетинга. // Материалы международной научно-практической конференции. - Москва, МГУ им. М.В.Ломоносова, МГ-ЭИ, ТФИ, 2010. -С. 256-258.

⁴ Maxmudov N.M., Madjidov Sh.A. “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” O'quv qo'llanma. T.: TDIU 86 (2010). Boltaboyev M.R. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasiyu Toshkent :TDIU,2005. Zaynuddinov SH.N., Rasulov N.M. Innovatsion menejment (darslik).-T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020. – B.540.; Abdullayev B.A. Innovatsion faoliyatning boshqaruvini takomillashtirish: i.f.n. diss. Avtorefer. – T., 2002., – B. 27; Махкамova M.A. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан: автореф. дис. ...д.э.н. – Т.: ТГТУ, 2004. – С. 45; Хасанова G.D. Sanoat korxonalarini innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish: i.f.n., diss. avtorefer. – T., BuxDU, 2006, – B.26; Otajonov SH.I. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish: i.f.d. (DS) diss. avtorefer. – T.: TDIU, 2018, – B.95; Rasulov N.M. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiyotini takomillashtirish: (DSc) diss. avtorefer. – T., 2021, – B.81; N.K.Yo'ldoshev, G.E.Zaxidov. Menejment: o'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston milliy faylasufi jamiyati, 2018. – 392 b.; Toshpulatov T.3. Развитие инновационной деятельности в промышленности Республики Узбекистан: авторефер. дис... к.э.н. – Т.: Институт экономики АН РУз., 2004, – С.24; Солиев И.И. Развитие инновационных процессов в сфере связи и информатизации Узбекистана: авторефер. дис... к.э.н. – Т.: Институт экономики АН РУз., 2010, – С.23, Shanazarova B.G. Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: PhD diss. avtor.. – T.: 2018. – B.56; Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalarini samaradorligini oshirish: PhD diss. avtor.. – T.: 2020. – B.60. D.S. Nasirxadjayeva "Forming a Methodology for Organizing Investment and Financial Reporting in the Activities of Subsidiaries in the Organization of Antitrust Compliance in Uzbekistan"

imkoniyatlarini oshirish, umuman to‘qimachilik sanoatda resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish kabi masalalarda tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, asosiy masala shundaki, ularning ko‘pchiligi O‘zbekistonni JSTga a‘zo bo‘lishi masalasini o‘zlarining ilmiy ishlarining bir qismi sifatida o‘rganib, ba‘zi olimlar JSTning davlat uchun ahamiyatini o‘rganish jaroyinida o‘z ilmiy ishlarini bir qismi sifatida o‘rgangan bo‘lsalar, boshqalar esa JSTga a‘zo bo‘lish hamda ushbu jarayondagi qiyinchiliklarni tadqiq qilish jarayonida ushbu masalaga qisman to‘xtalib o‘tganlar. Biroq mamlakatimiz olimlari tomonidan to‘qimachilik sanoatda Jahon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi hamda unda hal etiladigan masalalar doirasini belgilash bo‘yicha keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatida jahon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni Birkin M., Weber A., Christaller W., Lesch A., Porter M., Thünen J. kabi xorijiy iqtisodichi olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ko‘rish mumkin.⁵

Yaqin xorij mamlakatlari olimlaridan bojxona tariflarining ichki bozorda paxta matolarining raqobatbardoshligiga ta‘siri T.I. Fradina, T.A. Pavlovalarning ishida ko‘rib chiqilgan.⁶

O‘rganilayotgan muammoning ayrim jihatlarini mamlakatimiz olimlar A.S.Bekmurodov., U.V.Gafurov “O‘zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo‘lida” mavzusidagi tahliliy hisoboti ushbu tadqiqot ishini yozishda andoza metodologik asos vazifasini bajardi. N.S.Ismailova, U.A.Dadabayev O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan bo‘lsa,⁷ G.K.Sultanovanning Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nomli o‘quv metodik qo‘llanmasida ham ushbu to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi haqida yuqori fikirlar berib borilgan.⁸ Qobiljon Isaevning ilmiy ishlarida O‘zbekistonning jahon savdo tashkilotiga (jst) a‘zo bo‘lishini iqtisodiy baholash nomli ilmiy ishida tadqiqot empirik tahlil asosida O‘zbekistonning jahon savdo tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lishini iqtisodiy baholashning ekonometrik ta‘siri baholangan. Jasurbek

⁵ Birkin M., Wu B. A review of microsimulation and hybrid agent-based approaches // Agent-based models of geographical systems. – 2011. – No.1. - P. 51-68. Вебер А. Б. Политика мирового развития: между реальностью глобализации и императивом устойчивости // Полис. Политические исследования. – 2003. – №5. – С. 38-45. Кристаллер В., Геец В. Торговая инфраструктура в аспекте пространственной организации регионального потребительского рынка // Современная торговля: теория, практика, перспективы развития. – 2014. – №1. - С. 89. Леш А. Географическое размещение хозяйства. – М.: Изд-во иностр. лит., 1959. – 456 с. Портер М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. – М.: Альпина Паблишер, 2016. – 716 с. Тюнен Й. Устойчивость организации в условиях турбулентности мировой экономики // Современный менеджмент: проблемы и перспективы. – 2015. – №4. - С. 61-68.

⁶ Фрадина Т.И., Павлова Т.А. Влияние таможенного тарифа на конкурентоспособность хлопчатобумажных тканей на внутреннем рынке // Вестник ИНЖЭКОНА серия «Экономика» №2(15), 2007, стр.287-291

⁷ O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishning o‘ziga xos xususiyatlari. Monografiya. N.S.Ismailova, U.A.Dadabayev -Toshkent, 2023 й. - 93 b.

⁸ G.K. Sultanova Mejdunarodnyye ekonomicheskiye otnosheniya; Uchebno-metodicheskoye posobiye. UMED. –Т.: “EFFECT-D”, 2020. -248 s.

Otaniyozovning ilmiy ishlarida Jahon savdo tashkilotiga a'zolik respublikamizning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar kiritilgan.⁹

Biroq O'zbekistonda to'qimachilik sanoatida jaxon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish to'liq o'rganilmagan. Bundan tashqari, zamonaviy ko'rsatkichlar va usullardan foydalangan holda O'zbekiston to'qimachilik sanoatida jaxon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish imkoniyatlari mahalliy adabiyotlarda yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik sanoatida jahon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Jahon savdo tashkilotida to'qimachilik sanoati tushunchasining nazariy asoslarini o'rganib chiqish;

To'qimachilik sanoatining Jahon savdo tashkilotida rivojlanishi hamda globallashtirilgan jahon iqtisodiyotidagi tutgan o'rni o'rganish;

Mamlakat to'qimachilik sanoatini rag'batlantirish va tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini tahlil qilish;

To'qimachilik sanoatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror rivojlantirish strategiyasi o'rganib chiqish;

To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda barqaror rivojlanish omillarini tahlil qilish;

To'qimachilik sanoatida barqaror rivojlanish uslubiyati o'rganib chiqish;

JST doirasida to'qimachilik mahsulotlari xalqaro savdosini rivojlantirishdagi o'rni va hozirgi kundagi holati o'rganish;

Mamlakatlar JSTga kirishda to'qimachilik sanoati bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganib chiqish;

O'zbekistonda to'qimachilik sanoatining hozirgi holatini tahlil qilish;

To'qimachilik sanoatining tashqi iqtisodiy faoliyatini o'rganib chiqish;

Hozirgi kunda to'qimachilik sanoati mahsulotlarining savdo rejimini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lish afzalliklari va iqtisodiy xavf-xatarlarini tahlil qilish;

JSTga a'zo bo'lishining O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari importi va uning geografik yo'nalishlariga ta'sirini o'rganish;

Istiqbolda O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishining to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining raqobatbardoshligiga ta'sirini atroflicha tahlil qilish;

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi to'qimachilik sanoatining tashqi iqtisodiy faoliyati.

⁹ https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonning-jstga-azo-bolishi-koplab-imkoniyatlar-yaratadi_546283

Tadqiqot predmeti to‘qimachilik sanoatida jahon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“To‘qimachilik sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish” tushunchasi uslubiy yondashuv asosida takomillashtirilib, to‘qimachilik sanoatining xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni ijobiy iqtisodiy holatini taminlash, to‘qimachilik sanoati korxonalarining samaradorligini oshirish, to‘qimachilik subyektlarini uzoq muddatli chora-tadbirlar ishlab chiqish, to‘qimachilik korxonalarining raqobatdosh ustunligini ta’minlashga ta’sir etuvchi omillar mezonlari aniqlangan.

to‘qimachilik sanoati strategiyasini takomillashtirishga ko‘ra “to‘qimachilik sanoatining strategik ekvivalenti” tushunchasining iqtisodiy mazmuni to‘qimachilik sanoat korxonalarini dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bosqichida korxonalar holatini diagnostika qilish, individuallashtirilgan ierarxiya tamoyilini shakllantirish, xo‘jalik yurituvchi subyektning ustuvor maqsadlarini aniqlash, tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish taklifi asoslangan;

to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining samaradorligini belgilovchi global tendentsiyalar: nomoddiy aktivlar, mehnat resurslarining o‘ziga xos vakolatlari, strategik aloqalar tizimi, idoralararo munosabatlar, global bozor rivojlanishi, iqtisodiy beqarorlik, barqaror sanoatning maqsadli natijalarini taminlagan holda takomillashtirilgan;

to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining barqaror iqtisodiyot bozorlarining samaradorligini oshirish nazariy-uslubiy jihatdan asoslangan holda uzoq muddatli strategiyaning mavjudligi, aktivlarning ichki rivojlanishi, strategik ustuvorliklarning amalga oshirilishi, korporativ strategik qarorlar ishlab chiqish, savdo bozorlarini kengaytirish, maqsadli auditoriyaning integratsiyalashuvi bosqichlardagi harakati tavsifiga ko‘ra aniqlashtirilgan;

to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonasining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra muayyan bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan tikuvchilik korxonalari ish sharoitlarining o‘zgarishi, shuningdek, zamonaviy iqtisodiy vaziyatga xos xususiyatlar, mahsulot sotish va ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, ichki bozorda raqobatning kuchayishi, to‘qimachilik sanoati va sohalarini rag‘batlantiruvchi dastaklar orqali O‘zbekiston to‘qimachilik sanoat rivojlanishining SWOT tahlil ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishining to‘qimachilik sanoatida milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta’sirini yumshatish, sanoatni rivojlantirishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqishda, shuningdek, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining xalqaro

bozorda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida xorijiy davlatlar, xususan Xitoy Xalq Respublikasi tajribalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Paxta tolasi xom-ashyosi ishlab chiqaruvchilar bilan to'qimachilik sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar bilan bir biriga bog'liq bo'lgan tizimni joriy etish. Ya'ni fermerlarga paxta tolasini saqlash va uni qayta ishlash imkoniyatin beradigan texnologiya bilan ta'milash va mahsulotini bozor narxida sotish huquqini berish. Bundan to'qimachilik sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalarining istagan vaqtda, milliy valyutada milliy ishlab chiqaruvchilardan xom-ashyo sotib olish imkonini joriy etildi.

To'qimachilik sohasiga yirik xorijiy investitsiyalarni jalb etish va rag'batlantirish; bunda xorijiy ishlab chiqaruvchilarga texnika va texnologiyalarni olib kirishda bojxona imtiyozlari berish, ularga qulay investitsion muhit yaratib berish, shuningdek sohada faoliyat olib borish uchun barcha ma'lumotlarni olish uchun qulay tizimni joriy etish. Xorijiy investitsiyalar kirib kelish natijasida mamlakatimizda to'qimachilik sohasini modernizatsiya qilish imkoni paydo bo'ladi, shuningdek kadrlar malakasi ham yuqori darajaga chiqdi.

Brendi butun dunyoga mashhur bo'lgan xorijiy kompaniyalarni, o'z mahsulotlarini O'zbekistonda ishlab chiqarish imkoniyatini yaratish natijada mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Markaziy Osiyo mamlakatlarga eksport qilishni joriy etish; buning natijasida mamlakatimiz yuqori brendga ega mahsulotlarni ichki bozorda nisbatan arzon narxda sotishga, shuningdek innovatsion yangiliklardan xabardor bo'lishga va eksport natijasida tushadigan daromaddan ulush olishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi va qo'llanilayotgan uslubiy yondashuvlar, usullarning maqsadga muvofiqligi ularni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi va uning tizimidagi korxonalarining davriy hisobot va statistik to'plamlaridan olinganligi, to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi, ishda umumtadqiqot usullardan foydalanilganligi, xulosada keltirilgan taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o'tganligi, ularning 10 amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli korxonalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to'qimachilik sanoatida Jaxon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalardan ilmiy-texnika taraqqiyotining yangi bosqichi – uchinchi Renessans davrida respublika iqtisodiyotini yanada yuksaltirishning nazariyuslubiy asoslarini yanada takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi tavsiyalardan ilmiy-ishlab chiqarish sohasi mexanizmini takomillashtirish, "Iqtisodiyot nazariyasi", "Sanoat iqtisodiyoti" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitish, sohaga taalluqli me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish; "Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish", ularning samaradorligini

baholash, ushbu sohada boshqaruv qarorlarining asoslilik darajasini belgilashda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: to‘qimachilik sanoatida Jaxon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

“To‘qimachilik sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish” tushunchasi uslubiy yondashuv asosida takomillashtirilib, to‘qimachilik sanoatining xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni ijobiy iqtisodiy holatini taminlash, to‘qimachilik sanoati korxonalarining samaradorligini oshirish, to‘qimachilik subyektlarini uzoq muddatli chora-tadbirlar ishlab chiqish, to‘qimachilik korxonalarining raqobatdosh ustunligini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi omillar mezonlari orqali amalga oshirilgan. Nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Экономическая теория” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va inovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-maydagi 232-son buyrug‘i) ilmiy yangilikni amalyotga joriy etilish natijasida talabalarda aholi bandligi va daromadini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida takomillashtirilgan “To‘qimachilik sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan.

To‘qimachilik sanoati strategiyasini takomillashtirishga ko‘ra “to‘qimachilik sanoatining strategik ekvivalenti” tushunchasining iqtisodiy mazmuni to‘qimachilik sanoat korxonalarini dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bosqichida korxonalar holatini diagnostika qilish, individuallashtirilgan ierarxiya tamoyilini shakillantirish, xo‘jalik yurituvchi subyektning ustuvor maqsadlarini aniqlash, tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-71-sonli Farmonida o‘z aksini topgan. (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2026-yil 3-fevraldagi 05/33-902-sonli ma‘lumotnomasi)

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining samaradorligini belgilovchi global tendentsiyalar: nomoddiy aktivlar, mehnat resurslarining o‘ziga xos vakolatlari, strategik aloqalar tizimi, idoralararo munosabatlar, global bozor rivojlanishi, iqtisodiy beqarorlik, barqaror sanoatning maqsadli natijalarini taminlash orqali takomillashtirilgan. Bu ilmiy yangilik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida islohotlarni jadallashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-290-sonli qarorida o‘z aksini topgan. (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2026-yil 3-fevraldagi 05/33-902-sonli ma‘lumotnomasi)

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining barqaror iqtisodiyot bozorlarining samaradorligini oshirish nazariy-uslubiy jihatdan asoslangan holda uzoq muddatli strategiyaning mavjudligi, aktivlarning ichki rivojlanishi, strategik ustuvorliklarning amalga oshirilishi, korporativ strategik qarorlar ishlab chiqish, savdo bozorlarini kengaytirish, maqsadli auditoriyaning integratsiyalashuvi bosqichlardagi harakati tavsifiga asosan takomillashtirilgan. Nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Экономическая теория” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan

va inovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-maydagi 232-son buyrug‘i) ilmiy yangilikni amalyotga joriy etilish natijasida talabalarda aholi bandligi va daromadini oshirishga yo‘naltirilgan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonasi tashkiliy tuzilmasini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra muayyan bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan tikuvchilik korxonalari ish sharoitlarining o‘zgarishi, shuningdek, zamonaviy iqtisodiy vaziyatga xos xususiyatlar, mahsulot sotish va ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, ichki bozorda raqobatning kuchayishi, to‘qimachilik sanoati va sohalarini rag‘batlantiruvchi dastaklar orqali O‘zbekiston to‘qimachilik sanoat rivojlanishining SWOT tahlil ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan. Bu ilmiy yangilik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4186-son qarorida o‘z aksini topgan. (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2026-yil 3-fevraldagi 05/33-902-sonli ma’lumotnomasi)

O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan. Bu ilmiy yangilik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60-son Farmonida o‘z aksini topgan. (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2026-yil 3-fevraldagi 05/33-902-sonli ma’lumotnomasi)

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiya, shu jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xalqaro konferensiyada muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ishlar, jumladan, 1 ta monografiya, 13 ta ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda chop etilgan. Nashrlarning umumiy sonidan 7 ta maqola mahalliy jurnallarda, 6 tasi xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, besh bob, umumiy xulosa va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matni 238 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusining respublika fan va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga tatbiq etish, aprobatsiya qilish hamda nashr etilgan ishlar, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**To‘qimachilik sanoati rivojlanishida jahon savdo tashkiloti strategiyasidan foydalanishning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida jahon savdo tashkilotida to‘qimachilik sanoati tushunchasining nazariy jihatidan asoslab berilgan, to‘qimachilik sanoatining Jahon savdo tashkilotida rivojlanishi hamda globallashtirilgan jahon iqtisodiyotidagi tutgan o‘rni sezilarli darajada aniqlangan hamda mamlakat to‘qimachilik sanoatini rag‘batlantirish va tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi tadqiq etilgan.

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlarning tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi savdoni erkinlashtirish jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biriga aylanmoqda. Barcha mamlakatlarda bojxona bojlarining pasayishi, ko‘plab turdagi cheklashlarning bekor qilinishi kuzatilmoqda. Ko‘plab mamlakatlar yashirincha proteksionistik (davlatning o‘z ichki bozorini himoya qilish siyosati) chora-tadbirlardan ham keng foydalanadilar.

Bizning fikrimizcha bunday chora-tadbirlar jumlasiga milliy ishlab chiqarish turlariga dotatsiyalar berish, eksportni subsidiyalash, turli xil me‘yorlar va standartlar joriy qilish hamda boshqalarni kiritish mumkin. Jahon xo‘jaligida erkin savdo va proteksionizm o‘rtasida vujudga kelayotgan ziddiyatlarni hal etishda, xalqaro savdoni boshqarish, uning taraqqiyotiga bo‘lgan to‘siqlarni yo‘q qilish va erkinlashtirishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, xususan, Jahon savdo tashkiloti (JST) muhim o‘rin egallaydi.

Mintaqada eksport salohiyatini reytinglashdan maqsad eksport salohiyatiga miqdoriy baho berish hamda ularning boshqa mintaqalar orasidagi o‘rnini aniqlashdan iborat. Ko‘rsatkichlarni quyida ketirilgan formulalar yordamida yagona bir tizimli, taqqoslash imkonini beradigan holatga keltirib olindi. Ular:

- Jon boshiga to‘g‘ri kelgan mintaqa tashqi savdo aylanmasi, investitsiyalar, sanoat mahsuloti, qishloq xo‘jaligi mahsuloti, xizmatlar, qo‘shma korxonalar tashqi savdo aylanmasi;

- Individual tadbirkorlar soni;

- Barpo etilgan korxonalar soni (yil boshiga nisbatan % da);

- Qo‘shma korxonalarda band bo‘lganlik darajasi;

Mintaqa iqtisodiyotining ochiqlik darajasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{\text{iqt.ochiq.}} = (E_t^n / Y_{\text{aXM}}^n) * 100 \%$$

Bu yerda n – alohida mintaqa raqami; t – muayyan vaqt (yil); E – eksport hajmi, YaXM- yalpi xududiy mahsulot hajmi.¹⁰

Bu ko‘rsatkich o‘rtacha $\geq 10 \%$ bo‘lsa normal hisoblanadi.

Baxolash mintaqalarni ko‘rsatkichlar bo‘yicha yig‘gan natijalar bo‘yicha reytinglashni ifodalaydi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi hamda Yaim hajmi ko‘p jihatdan mamlakat eksport salohiyati va undan naqadar oqilona foydalanishga bog‘liq bo‘ladi.

Mamlakatimiz eksportini riojlantirishga salbiy ta‘sir etayotgan muammolar bizningcha quyidagilar. 1-jadval.

¹⁰ Фетисов Г.Г., Орешин В.П. “Региональная экономика и управление”. Учебник. -М.: ИНФРА-М, 2006, 24 б.

Mamlakat eksportiga ta'sir qiluvchi omillar¹¹

Muammolar	Yechim
tashqi bozorda ishlaydigan moliyaviy qo'llab quvvatlovchi moliya-kredit sektorining etarli rivojlanmaganligi	eksportchilar uchun moliyaviy yordamni kengaytirish, shu jumladan, eksport kreditlari va sug'urtalash xizmatlarini yaxshilash.
eksport qilinadigan mahsulotlar narxining qimmatlashishiga sabab bo'layotgan hamda uni iqtisodiy jihatdan foydasiz qilib qo'yayotgan, aksariyat qismi juda yuqori bo'lgan mavjud tashish tizimi	transport va logistika sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish, zamonaviy infratuzilmani yaratish va xalqaro standartlarga mos keladigan tizimlarni joriy etish.
